



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 16-iyul

334-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024 yil 15 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligi subyektlariga qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini sug‘urtalashda sug‘urta mukofoti uchun to‘lov xarajatlarining bir qismini qoplash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 2-iyuldagi 373-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 310-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligi subyektlariga qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini sug‘urtalashda sug‘urta mukofoti uchun to‘lov xarajatlarining bir qismini qoplash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 2-iyuldagi 373-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024 yil 15 iyuldagi 310-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024 yil 15 iyuldagi 310-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar 2024-yil 2-iyuldagi 373-son qarori bilan:

quyidagilarni nazarda tutuvchi Qishloq xo‘jaligi subyektlariga qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini sug‘urtalashda sug‘urta mukofoti uchun to‘lov xarajatlarining bir qismini qoplash tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

qishloq xo‘jaligi subyektlariga qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini sug‘urtalashda sug‘urta mukofoti uchun to‘lov xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya (keyingi o‘rinlarda subsidiya) ajratish bo‘yicha talab etiladigan hujjatlar hamda ularni ko‘rib chiqish tartibi;

subsidiya ajratish to‘g‘risidagi xulosani qabul qilish va subsidiya ajratish tartibi;

sug‘urta shartnomasi muddatidan avval bekor qilinganda, shuningdek, sug‘urta hodisasi sodir bo‘lmaganda va (yoki) sug‘urta to‘lovni to‘lanmagan bo‘lsa, sug‘urta shartnomasi bo‘yicha qoplab berilgan sug‘urta mukofotining foydalanilmagan davriga mutanosib qismini qaytarish tartibi;

O‘zbekiston sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari uyushmasi sug‘urta kompaniyalari bilan birgalikda qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini sug‘urtalashda tabiiy va iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda hududlar uchun alohida xavf-xatarlarni hamda tabaqalashgan sug‘urta tariflarini joriy etilganligi;

belgilanishicha:

2024-yilda ushbu subsidiyalar 2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining hosilini sug‘urtalash xarajatlarining 50 foizini qoplashga subsidiyalar uchun nazarda tutilgan mablag‘lar doirasida berilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2025-yildan boshlab har yili Qishloq xo‘jaligi vazirligining hisob-kitoblariga asosan qishloq xo‘jaligi subyektlariga qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini sug‘urtalashda sug‘urta mukofoti uchun to‘lov xarajatlarining 50 foizini qoplash uchun zarur mablag‘larni O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutib borishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimning moliya- iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari va tuman hokimning qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari B.Mo'ydinov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



N.Xudoyberdiyev